

Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritish ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmayligini yaxshi tasavvur etamiz.

Talaba-yoshlar o'z fikrlarini erkin bayon qila olishi hamda ularni o'z fikr munosabatlari bilan o'rtoqlashish maqsadida bugun 2019 yil 1 aprel 1 jeuftlikda "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti 401 guruh talabalari bilan birgalikda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va asoslari fanidan "Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash" mavzusida ochiq dars bo'lib o'tdi.

Ochiq darsni "Gumanitar fanlar" kafedrasida assistenti Xalima Botirova o'tkazdi. Ochiq darsda kafedraning professor-o'qituvchilari shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi t.f.d. Allayeva Nigora Ashirovna hamda qiziquvchilar ishtirok etishdi. Dars yakunida o'qituvchilar o'tkazilgan ochiq dars yuzasidan o'zlarining o'z fikrlarini bildirdilar hamda talabalarning kelajakdagi ishlari uchun muvaffaqiyat tilab qoldilar.



"O'qitishning texnik vositalari" bo'limi boshlig'i M.Tosheva axboroti